



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(2)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 594 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayyora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abdavaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojiakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	
O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdufattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	



Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	153
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	157
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	
Artificial Intelligence in Foreign Language Education: Enhancing Critical Thinking and Academic Communication Skills	164
<i>Allamuratov Gofur Ashurovich</i>	
Talabalarning bolalardagi ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.....	169
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	
Jamoaviy va yakkakurashchi professional sportchilar motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik farqlari	172
<i>Qaimova Gulmira Uchqun qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari.....	176
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Katta guruh tarbiyalanuvchilarida steam kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik va yoshga oid psixologik xususiyatlari.....	179
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari.....	183
<i>Yakubova Zilola Zikirovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining divergent fikrlashlarini rivojlantirish	187
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinoz Sadriddinovna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkur fenomenini rivojlantirish.....	191
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Pedagogical Conditions for Developing Professional Motivation of Economics Students Through Gamification in English Language Classes.....	196
<i>Bobokeldieva Maftuna Abdusamad qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatlarini shakllantirish asoslari	203
<i>Urunov Abduxalil Madjidovich</i>	
STEAM yondashuvi vositasida fizika fanida o'quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	208
<i>Jo'rayev H. O., Avezov I. Yo., Sharipov S. B.</i>	
STEAM ta'limi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish	214
<i>Cho'ponova Sharifa Bozor qizi, Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konstruksiyalash va modellashtirish kompetensiyalarini rivojlantirish.....	219
<i>Haydarov Mirjalol Shog'dorovich</i>	

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY SHAKLLANISH INDIVIDUAL TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASH METODIKASI M. B. Sheraliyeva	222
RAQAMLI DAVRDA KITOBXONLIK MADANIYATI VA ADABIYOTNING ROLI Nabiyeva Sharifa Ismailovna, Ergasheva Mehriyona O'lmas qizi	228
JISMONIY TARBIIYA TA'LIMIDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI O'razboeva Adiba Abdug'ani qizi	231
MILLIY KASHTACHILIK ASOSIDA 5-SINF O'QUVCHILARINING ESTETIK TARBIIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI Olimova Dilnoza Murodullo qizi	236
ARALASH TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI 5E MODEL VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH Rajabova Nodirabegim Komilovna	240
OLIY TA'LIM TALABALARINING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH Raximov Bobirjon Abdurasulovich	245
RAQAMLI PEDAGOGIKANING ZAMONAVIY TA'LIM RIVOJLANISHIDAGI O'RNI Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna	250
AJDODLAR SIYAMOSINI IFODALASH VOSITASIDA TALABALARNI MILLIY IFTIXOR RUHIDA TARBIIYALASH JARAYONI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA Xaitov Zufar Asroralievich	255
ГОТОВНОСТЬ К ОБУЧЕНИЮ В ШКОЛЕ У ДЕТЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ Шералиев Сарварбек Сохибжон угли	260
OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISHGA OID NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI Asadova Zarina Axmadovna	263
GRAMMATIK TARJIMA METODINING ASOSIY TAMOIILLARI VA XUSUSIYATLARI Erkinova Madina Komil qizi	272
UMUMTA'LIM MAKTABLARINI BOSHQARISHDA SINIF RAHBARLARI FAOLIYATINING PEDAGOGIK MOHIYATI Komilova Ziroatxon Murodjon qizi	275
MAKTABGA TAYYORLOV GURUHIDA BOLALARNI SAVODGA TAYYORLASHDA RIVOJLANISH MARKAZLARINING METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Avazova Gulshoda Shodi qizi	282
TURIZM SOHASI TALABALARINING INGLIZ TILIDAGI KASBIY DISKURSIDA UCHRAYDIGAN KOMMUNIKATIV TO'SIQLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI Usmonova Zilola Javlon qizi	289
CHET TILINI KASBIY FANLAR BILAN INTEGRATSIYALASHDA CLIL MODELINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI Yo'ldoshev Otabek Abdug'aniyevich, Amirkulov Asliddin Shuxratovich	294
BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH Rajabova Dilfuza Abdumajitovna	299
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ТРЕВОЖНОСТИ И СТРАХА У ЖЕРТВ ТОРГОВЛИ ЛЮДЬМИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ Махмудова Д. А.	303
ADABIY ASARLARDA XRONOTOP MUAMMOSINING BADIY AHAMIYATI Yaqubjonov Iqboljon Odiljonovich	306
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI INTELEKTUAL RIVOJLANTIRISHDA SENSOR INTEGRATSIYA YONDASHUVINING AHAMIYATI .. To'rayeva Charosxon Shavkat qizi	311
BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA EKOLOGIK TARBIIYANI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI Rahmonova Mavluda Suvon qizi, Safarova Rushana Murodullo qizi	316
BADIY ASARLARNI O'QITISHDA EMPATIK YONDASHUVNING METODIK IMKONIYATLARI Shoyimova Shaira Sanakulovna	320
BOLALAR ME'YORIY ONTOGENEZIDA YOZUV VA GRAFOMOTOR KO'NIKMALARINI RIVOJLANISHI Alimova Kamola Xayrulla qizi	323
YOSH VOLEYBOLCHILARDA O'YIN QARORINI QABUL QILISH (Decision-making) KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI Azimova Gulnoza Karimjon qizi	328
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI Muxamadaliyeva Madinabonu Bohodirjon qizi	333



Raqamli egizak texnologiyasi asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	336
<i>Sorimsokov Uchqun Soatboy o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga integrativ mashqlar orqali ta'lim berishning ahamiyati.....	340
<i>Zokirov Javohir G'aybullo o'g'li</i>	
Voleybol sport turini o'rgatish va uning mohiyati	345
<i>Eshbayev Ximmat Ablakul o'g'li</i>	
Qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik mexanizmlari	348
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi va qadriyatlar integratsiyalashuvining o'ziga xosligi	352
<i>A. Bozorov</i>	
Nutqiy etiket madaniyatning bosh bo'g'ini sifatida	357
<i>Abdurahmonova Kamola Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida ingliz tilida kasbiy yo'naltirilgan leksik kompetensiyani rivojlantirishga qo'yilgan zamonaviy talablar	362
<i>Axmatqulova Maxfuza Shuhrat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning rivojlanishida muhim omil sifatida	370
<i>M. Xo'jamberdiyeva, Abduvohidova Shaxnoza</i>	
Jismoniy mashqlar orqali stress va emotsional zo'riqishlarni kamaytirish imkoniyatlari.....	373
<i>Baxodirova Gulyora Nuriddin qizi</i>	
Kasbiy ta'limning raqamli transformatsiyasi va o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari	378
<i>Biysenov Temirbek</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik asoslari	382
<i>Bo'libekova Maftuna Shermuxammadovna</i>	
"Tarbiya" darslarini tashkil etish texnologiyalari	388
<i>Boltayeva Marjona Oybek qizi, Samadova Mahbuba Nutfullo qizi</i>	
Challenges in Translating Behavioral Verbs: A Lexicographic Perspective from English and Uzbek.....	392
<i>Elchayev Zokhidjon Akhmatovich</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashning istiqbolli yo'nalishlari	396
<i>Ernazarov Zohid Nazarovich</i>	
Tejamkor ta'lim muhitida kaizen texnologiyasi vositasida bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	400
<i>Eshonkulova Shaxnoza Bayturayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga doir bilimlarni shakllantirish	403
<i>Nuriddinova Maysara Ikromovna, Eshonqulova Uralbuvish Fayzullayevna</i>	
Raqamli transformatsiya jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahoratni rivojlantirish	406
<i>G. X. Narzullayeva, F. M. Miraximova</i>	
Ekologik omillarning yosh sprinterlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishdagi va musobaqa faoliyatidagi o'rni (Orol bo'yi mintaqasi misolida).....	411
<i>Genjemuratova Guljaxon Berdimbetovna</i>	
Emotsional intellekt konsepsiyasining rivojlanish bosqichlari	416
<i>Giyasova Nozimaxon Qahramon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish	419
<i>Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlashda dual yondashuv	422
<i>Israilova Xusnida Adilovna</i>	
Legaltech va Lawtech: global istiqbollar, muammolar va imkoniyatlar	427
<i>Kalandarova Gavhar Sulaymanovna, Nematov Dilshodbek</i>	
Kasbiy faoliyatda muloqot madaniyati va nutq mahoratini rivojlantirishning metodologik jihatlari.....	432
<i>Kalandarova Gavhar Sulaymanovna, Raxmatullayeva Shaxnoza</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini ingliz tilida shakllantirishda o'qitish metodlarining ahamiyati	435
<i>Kamalova Saida Maxamat Ibraximovna</i>	

Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlari	439
<i>Kambarova Dilfuza Salijanovna</i>	
Maktabdan tashqari ta'lim tizimida o'qituvchilarning motivatsiyasini oshirishda psixologik qo'llab-quvvatlashning o'rni	443
<i>Karimova Nigora</i>	
Bo'lajak pedagoglarning intellektual-artistik mahoratini rivojlantirishda mikromodulli mobil ta'lim (M-Learning) texnologiyasining loyihasi	447
<i>Karribojeva Lobarxon Fayzulla qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformasi yordamida texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativligini rivojlantirish.....	452
<i>Raxmatov A'zam Ashur o'g'li, Kenjayeva Marjona Komil qizi</i>	
CEFR standartlari asosida ielts imtihoniga tayyorlash metodikasi	457
<i>Mavlyanova Nilufar Suvankulovna, Ahadova Go'zal Ismatullojevna</i>	
Project-Based Learning in Professional Education	461
<i>Mukhtarova Nozima Kuchkarovna</i>	
Kreativ kompetensiya- zamonaviy o'qituvchi muhim kasbiy sifatining ustuvor omili	464
<i>Nazarova Madinabonu Narzi qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda psixologik xizmatning o'rni.....	468
<i>Nosirova Muhabbat Pirmurod qizi, Jabborova Malohat Azimovna</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida o'ziga ishonchni oshirishda psixologik treninglarning ahamiyati.....	472
<i>Nozimbojeva Muqaddas Abdulvohid qizi</i>	
Brayl sistemasidagi boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanish.....	477
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Jo'raqulova Sharofat Baxtiyorovna</i>	
Abdulla avloniy ijodida gender madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalari ning pedagogik tahlili	480
<i>Nurimbetova Shaxnoza Gayrat qizi</i>	
Analitik kimyo fanidan mass-spektrometriya mavzusini muammoli ta'lim metodi asosida o'qitish samaradorligini oshirish.....	485
<i>Nurjanova Fazila Farxadovna, Qo'chqarova Nargiza Otabekovna</i>	
Talabalarda oilaviy budjetni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishda loyiha ta'limining o'rni.....	489
<i>Nurmatova Maftuna Ilxamovna</i>	
Tyutorlarning innovatsion faoliyatini tashkil etishda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	493
<i>O'rinova Nilufar Muhammadovna, Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi</i>	
Ona tili darslarida o'quvchilarda sintaktik tushunchalarni shakllantirish usullari.....	498
<i>O'rozbojeva Dilnoza Alimboy qizi</i>	
Xulq-atvor fe'llarining ma'nosini yoritishda misollarning funksional roli	501
<i>Ochilova Sanobar Narzullayevna</i>	
Pedagogik ta'lim jarayonida umummadaniy kompetentlikning mazmuni va tarkibiy komponentlari	504
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fan orqali ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik bosqichlari.....	508
<i>Orifjonova Iroda Orifjon qizi, Qutlimuratova Barchinoy Xolmurot qizi, Sirojeva Jasmina Rustamovna</i>	
Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni badiiy meros asosida ma'naviy-estetik rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	512
<i>Otaboboyeva Umida Ilxomovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik rivojlanishida mental yondashuv metodikasining ahamiyati	517
<i>Parpijeva Mohinur Baxtiyor qizi</i>	
Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda madaniy merosning ahamiyati.....	520
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning samarali usullari	523
<i>Rahmonova Mavluda Suvon qizi, Sanginova Sevinch Bunyod qizi</i>	
Pedagogik sinflarni tashkil etish tamoyillari va asoslari.....	527
<i>Sadullojeva Farog'at Hikmatillo qizi</i>	



Yillik mashg'ulot jarayonida o'rta masofa yuguruvchilarining tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirish metodikasi	530
Saotov Farhod Alisher o'g'li	
Bugungi kunda talabalarni mutaxassis sifatida shakllantirishda maqsadga muvofiqlik, natijadorlik, optimallik va ijodkorlik mezonlari (pedagogika ta'lim yo'nalishi misolida).....	535
Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi	
O'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodlari	539
Sharipova Marjona Rashidovna	
Zamonaviy yoshlar orasida prokrastinatsiya muammosi.....	543
Tillayeva Nodira Iskandar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik madaniyatini shakllantirish	546
Umarova Gulshod Abduljabbarovna	
Yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanishining psixologik omillari	552
Xolmirzayev Zafar Mirzamadinovich	
Karate sport turining madaniyati.....	556
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li	
Ko'ngillilik faoliyatining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....	560
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi	
Talaba-yoshlarni milliy kurash mashg'ulotlariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	563
Zaynobidinov Dilshodbek Qobilovich	
Raqamli ta'lim muhitida o'smirlarning o'zini anglash jarayoni va uning shaxsiy rivojlanishga ta'siri.....	567
Zufarova Yulduzxon Muxiddin qizi	
Интерпретация биологических терминов на русском языке	570
Абдуллаева Нигора Курбановна	
Жанровые особенности рассказа-антиутопии В. С. Маканина "Однодневная война".....	574
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Мифопоэтика и аксиологические функции архетипа матери-хранительницы в повестях В. Г. Распутина "Последний срок" и "Прощание с матёрой"	578
Коржова Шахло Одилжоновна	
Методологические аспекты изучения адаптаций Песчанковых (Gerbillidae) к аридным условиям: анализ классических и современных исследований	585
Нурова Хикоят Кенжаевна	
К вопросу о руководстве самостоятельной работой студентов при изучении иностранных языков	590
Рахимова Мухайё Акмаловна	

ABDULLA AVLONIY IJODIDA GENDER MADANIYATI VA IJTIMOY MAS'ULIYAT G'OYALARINING PEDAGOGIK TAHLILI

Nurimbetova Shaxnoza Gayrat qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlik harakatining yirik vakili Abdulla Avloniy ijodida ilgari surilgan gender madaniyati, xotin-qizlar ta'limi, oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalari pedagogik-badiiy jihatdan tahlil qilindi. Maqolada Avloniyning she'riy asarlarida ayol va erkak shaxsining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, qiz bolalarning ilm olishi, ota-onaning farzand oldidagi burchi, oiladagi o'zaro hurmat va mas'uliyat masalalari qanday ifodalangani ochib berildi. Shuningdek, muallifning qarashlari zamonaviy gender pedagogikasi tamoyillari - tenglik, adolat, ma'rifat, o'zaro hurmat, oilaviy barqarorlik va ijtimoiy faollik mezonlari bilan bog'liq holda izohlandi. Tahlil natijalari Avloniy ijodiy merosi bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarda gender madaniyati, ijtimoiy mas'uliyat, ma'naviy yetuklik va oilaviy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirishda muhim didaktik manba bo'la olishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, gender madaniyati, jadid pedagogikasi, xotin-qizlar ta'limi, ijtimoiy mas'uliyat, oila tarbiyasi, ma'rifat, tenglik, axloqiy tarbiya.

Abstract: This article analyzes the ideas of gender culture, women's education, family relations, child upbringing, and social responsibility advanced in the works of Abdulla Avloniy, a prominent representative of the Jadid enlightenment movement, from pedagogical and literary perspectives. The study reveals how Avloniy's poetic works reflect the role of women and men in social development, girls' access to education, parental responsibility, and mutual respect within the family. The author's views are also interpreted in connection with the principles of modern gender pedagogy, including equality, justice, enlightenment, mutual respect, family stability, and social activity. The findings demonstrate that Avloniy's creative heritage can serve as an important didactic resource for fostering gender culture, social responsibility, moral maturity, and a conscious attitude toward family values among students.

Key words: Abdulla Avloniy, gender culture, jadid pedagogy, women's education, social responsibility, family upbringing, enlightenment, equality, moral education.

Аннотация: В данной статье с педагогической и художественной точек зрения проанализированы идеи гендерной культуры, образования женщин, семейных отношений, воспитания детей и социальной ответственности, выдвинутые в творчестве крупного представителя джадидского просветительского движения Абдуллы Авлони. В статье раскрывается, как в поэтических произведениях автора отражены роль мужчины и женщины в развитии общества, образование девочек, ответственность родителей перед детьми, вопросы взаимного уважения и ответственности в семье. Также взгляды автора интерпретируются через призму принципов современной гендерной педагогики - равенства, справедливости, просвещения, взаимного уважения, семейной стабильности и социальной активности. Результаты исследования показывают, что творческое наследие Авлони может служить важным дидактическим источником в формировании у учащихся гендерной культуры, социальной ответственности, духовной зрелости и осознанного отношения к семейным ценностям.

Ключевые слова: Абдулла Авлони, гендерная культура, джадидская педагогика, образование женщин, социальная ответственность, семейное воспитание, просвещение, равенство, нравственное воспитание.

KIRISH

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqni ma'rifat, ilm, yangi maktab, axloqiy poklanish va milliy uyg'onish sari yetaklagan muhim tarixiy-pedagogik hodisa hisoblanadi. Ushbu harakatning asosiy maqsadi jamiyatni jaholatdan chiqarish, yosh avlodni ilmi, ongli, vatanparvar va ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdan iborat edi. Jadid ma'rifatparvarlari orasida Abdulla Avloniy alohida o'rin egallab, o'zining darsliklari, she'rlari, dramatik asarlari va publitsistik qarashlari orqali xalqni ilmga, tarbiyaga, axloqqa va ijtimoiy mas'uliyatga da'vat etdi ^[4].



Xalqaro hamjamiyat va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarida, xususan, 5-maqsadda gender tengligini ta'minlash hamda yosh avlod ongida tenglik madaniyatini shakllantirish global ijtimoiy-pedagogik vazifa sifatida belgilangan ^[1]. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-201-son¹ qarori jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosini zamonaviy ta'lim mazmuniga integratsiya qilish zaruratini belgilaydi ^[2]. Avloniy ijodida tarbiya masalasi faqat bola shaxsini shakllantirish doirasida emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Mutafakkir millat tanazzulining sababini ilmsizlikda, ayniqsa, xotin-qizlarning ma'rifatdan uzoqlashib qolganligida ko'radi. Uning fikricha, millat ravnaqi oiladan, ota-onaning farzandga munosabatidan, ayol va erkakning ilmi bo'lishidan hamda jamiyatdagi axloqiy mezonlarning to'g'ri shakllanishidan boshlanadi.

Bugungi kunda gender madaniyati ayol va erkakning teng huquqli, teng imkoniyatli va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlari anglatadi. Ta'lim tizimida esa bu tushuncha o'quvchilarda kamsitmaslik, har bir shaxs salohiyatini qadrlash va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish bilan bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Avloniy merosida gender madaniyatining tarixiy-ma'rifiy ildizlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi Abdulla Avloniy she'riy merosida xotin-qizlar ta'limi, oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi, er-xotin mas'uliyati hamda jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq gender madaniyati g'oyalari pedagogik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Abdulla Avloniy ijodi va uning pedagogik qarashlari o'zbek pedagogika fani, adabiyotshunoslik hamda tarbiya nazariyasida keng o'rganilgan. Avloniy merosi nafaqat milliy uyg'onish davri ma'rifatparvarlik g'oyalari aks ettirishi, balki yosh avlodni tarbiyalash, oila, axloq, ma'naviyat va ijtimoiy mas'uliyat masalalarini yoritishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda uning asarlarida ilgari surilgan g'oyalarning gender madaniyati bilan bog'liq jihatlari ham ilmiy tadqiqotlar markaziga aylanmoqda.

Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarini o'rganishda B.Qosimov, N.Karimov, U.Dolimov, H.Umurov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim manba hisoblanadi. B.Qosimov jadidchilik harakati va uning ma'rifiy mohiyatini tahlil qilar ekan, Avloniy faoliyatini milliy taraqqiyot va ma'naviy uyg'onish bilan bog'laydi. N.Karimov esa jadid adabiyoti va ma'rifatparvarlik g'oyalari yoshlar tarbiyasidagi o'rnini yoritib, Avloniy asarlarida ilm, tarbiya va ijtimoiy mas'uliyat masalalariga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidlaydi.

Avloniyning tarbiya haqidagi qarashlari, ayniqsa, "Turkiy guliston yoxud axloq" asari misolida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. U.Dolimov va R.Mavlonova pedagogik merosni tahlil qilish jarayonida Avloniyning shaxs kamoloti, axloqiy tarbiya, ota-ona mas'uliyati va oila muhitining tarbiyaviy ahamiyati haqidagi qarashlarini zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan bog'liq holda izohlaydilar.

Gender madaniyati masalasi zamonaviy pedagogika va sotsiologiyada ham keng tadqiq qilinmoqda. Xususan, S.Bem, J.Butler va R.Connell kabi olimlar gender munosabatlari, gender identifikatsiyasi va ijtimoiy tenglik masalalarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida gender madaniyati shaxsning tenglik, o'zaro hurmat, ijtimoiy mas'uliyat va adolatga asoslangan munosabatlar tizimi sifatida talqin qilinadi.

O'zbekistonlik pedagog olimlardan M.Quronov, O.Musurmonova va Sh. Sharipovlarning ilmiy ishlarida ma'naviy tarbiya, oilaviy qadriyatlar, yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash hamda gender madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda oila va ta'lim muassasalarining hamkorligi, o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish muhim omil sifatida baholanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Abdulla Avloniy ijodida gender madaniyati masalasi bevosita zamonaviy terminlar bilan ifodalanmagan bo'lsa-da, uning asarlarida xotin-qizlar ta'limi, o'g'il va qiz farzandlar tarbiyasida tenglik, oiladagi o'zaro hurmat, ota-onaning mas'uliyati hamda jamiyat taraqqiyotida ayol va erkakning o'rnini kabi masalalar keng yoritilgan. Shu jihatdan Avloniy merosi bugungi kunda gender madaniyati va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishning muhim pedagogik manbalaridan biri sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Gender madaniyatini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika, sotsiologiya va psixologiya fanlarida keng o'rganilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Gender madaniyati shaxsning tenglik, o'zaro hurmat, ijtimoiy mas'uliyat hamda konstruktiv munosabatlarga asoslangan qadriyatlar tizimini anglatadi. Mazkur masala xalqaro miqyosda ham dolzarb bo'lib, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida gender tengligini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etilgan ^[1]. Maqolani tayyorlash jarayonida Abdulla Avloniyning "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" turkumidagi she'riy asarlaridan olingan parchalar asosiy manba sifatida tanlandi. Tahlil markaziga muallifning xotin-qizlar ta'limi, farzand tarbiyasi, oilaviy munosabatlar, er va xotin mas'uliyati, jamiyatdagi jaholat va ma'rifat qarama-qarshiligi aks etgan she'rlari olindi.

1 <https://www.lex.uz/docs/-6947380#-7420865>

Maqolada kontent tahlili, matn tahlili, pedagogik interpretatsiya hamda qiyosiy-pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Kontent tahlili yordamida she'rlardagi gender madaniyatiga oid mazmunlar, asosiy konseptlar va tarbiyaviy komponentlar ajratib olindi. Matn tahlili orqali she'riy parchalarning mazmuni va pedagogik mohiyati ochib berildi. Pedagogik interpretatsiya asosida mazkur qarashlarning o'quvchilarda gender madaniyati, oilaviy mas'uliyat, ijtimoiy faollik va ma'naviy ongni shakllantirishdagi imkoniyatlari izohlandi. Qiyosiy-pedagogik yondashuv esa Avloniy qarashlarini gender madaniyatining zamonaviy pedagogik talqinlari bilan taqqoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

3.1. Xotin-qizlar ta'limi Avloniy ijodida millat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida

Abdulla Avloniy ijodida xotin-qizlar ta'limi masalasi alohida o'rin tutadi. U ayol kishining qadr-qimmatini tashqi bezak, taqinchoq yoki maishiy ko'rinish bilan emas, balki uning ilmi, aqli, odobi va ma'naviy yetukligi bilan belgilanadi, degan fikrni ilgari suradi. Muallifning quyidagi misralari bu g'oyani aniq ifodalaydi:

*"Ilm-u donish yaxshi ziynatdur xotun-qiz ahlina,
 Qo'y qadam ilm uyina, tumor-u marjonni unut"* [3, 108-b.].

Ushbu misralarda "ilm-u donish" ayol uchun eng ulug' ziynat sifatida ko'rsatiladi. Avloniy bu orqali jamiyatda mavjud bo'lgan "ayolning bezagi - taqinchoq, libos yoki tashqi ko'rinish" degan yuzaki qarashni inkor etadi. Uning nazarida, haqiqiy go'zallik ilm, aql, tarbiya va ma'naviyat bilan belgilanadi.

"Diqqatman" she'ridagi quyidagi misralar ham xotin-qizlar ta'limi masalasini yanada chuqurroq yoritadi:

*"O'qub hamsoyamizning qizlari zebo tikish tiksa,
 Ba'zi qizlarni tikg'oni burushganiga diqqatman.
 Bo'laklar ilm durrin rishtayi joniga tizganda,
 Bizimki ilmsiz cho'pchak terishkoniga diqqatman"* [3, 62-b.].

Bu parchada Avloniy ilmi va ilmsiz qizlar holatini qiyoslaydi. "Ilm durrin rishtayi joniga tizish" obrazi orqali ilm inson hayotining eng qimmatli duri sifatida talqin qilinadi. "Ilmsiz cho'pchak terish" esa ayol shaxsining imkoniyatlari ochilmay qolganini, uning ijtimoiy hayotdan chetda qolayotganini bildiradi [3, 62-b.].

3.2. O'g'il va qiz farzand tarbiyasida tenglik g'oyasi

Avloniy ijodida farzand tarbiyasi masalasi jinsga ajratilmaydi. U o'g'il va qiz bolani birdek tarbiyalash, har ikkisiga ilm berish, mehr bilan ulg'aytirish zarurligini ta'kidlaydi. "Gapurmanglar" she'rida bu fikr quyidagicha ifodalangan:

*"O'g'ul, qizlarni yaxshi tarbiyat birla qiling ulkan,
 G'azab, achchig' ila dahshat siyosatdan gapurmanglar.
 Bolasini o'qutmak farzdur har bir otolarga,
 O'qutmasdan, ish o'tgan so'ng nadomatdan gapurmanglar!"* [3, 124-b.].

Ushbu misralarda bir nechta muhim pedagogik g'oya mujassam. Birinchidan, Avloniy "o'g'ul, qizlar" iborasini yonma-yon qo'llaydi. Bu orqali u farzand tarbiyasida jinsiy tafovutga asoslangan ajratishni rad etadi. Ikkinchidan, "yaxshi tarbiyat" tushunchasi faqat bilim berish emas, balki mehr, odob, axloq, madaniyat va ijtimoiy ongni shakllantirishni ham anglatadi. Avloniy ota-onaning farzand oldidagi burchini juda yuqori baholaydi. Uning fikricha, bola o'qitilmasa, tarbiyalanmasa, keyinchalik afsuslanishdan foyda yo'q. Ayniqsa, "bolasini o'qutmak farzdur" degan fikr ilm olish o'g'il uchun ham, qiz uchun ham zarurligini bildiradi.

3.3. Ilmsizlik - ayol va erkak uchun umumiy ijtimoiy xavf

Avloniy jamiyatdagi tanazzulni faqat ayollar yoki faqat erkaklar muammosi sifatida emas, balki butun millat muammosi sifatida talqin qiladi. Uning "Istiqbolimiz uchun bir jigarso'z" she'ridagi quyidagi misralari bunga dalildir:

*"Bu kun ne bo'ldi bizga, ilmsiz o'g'il-qizlar,
 Bo'lubdi millatning avlodi barcha ishsizlar.
 Kelurni o'ylamagan xom-u bexabar bizlar,
 Yetar bu damg'acha hijronda intizor etmak"* [3, 63-b.].

Bu yerda "ilmsiz o'g'il-qizlar" iborasi juda muhim. Avloniy millat kelajagini o'g'il va qiz farzandlarning ilmi bo'lishi bilan bog'laydi. Agar jamiyatda o'g'il ham, qiz ham bilimdan chetda qolsa, bunday avlod kelajakni qurishga qodir bo'lmaydi.

"Biz nima holdamiz?" she'rida esa Avloniy jaholatni ayol va erkakka birdek tegishli muammo sifatida tasvirlaydi:

*"Dori dunyo ilm ila purnur o'lan bir vaqtda,
 Jahli vodiysinda yotgandur xotun-erkakmiz"* [3, 88-b.].



Bu misralarda dunyo ilm bilan nurga to'layotgan bir paytda, xalqning "jaholat vodiysida" qolayotgani keskin tanqid qilinadi. Ayniqsa, "xotun-erkakmiz" so'zi orqali Avloniy jamiyat taraqqiyoti uchun har ikki jins vakili birdek mas'ul ekanini ko'rsatadi [3, 88-b.].

3.4. Oilaviy munosabatlarda gender madaniyati va o'zaro hurmat

Avloniy ijodida oilaviy munosabatlar jamiyatning axloqiy holatini ko'rsatuvchi muhim mezon sifatida talqin qilinadi. Uning nazarida, oilada er-xotin o'rtasida hurmat, murosa, mehr va mas'uliyat bo'lmasa, jamiyatda ham barqarorlik bo'lmaydi. "Tarje'band" asaridagi quyidagi misralar bunga misol bo'ladi:

*"Qizlar anoni so'zlarini qilmayur qabul,
 O'g'li atosi so'zina solmayur quloq.
 Er xotuni bilan qilodur erta-kech urush,
 Xotun erig'a qilg'uchi har kunda bir firoq"* [3, 67-b.].

Bu parchada oila ichidagi izdan chiqish, avlodlar o'rtasidagi uzilish, er va xotin o'rtasidagi nizolar tasvirlangan. Avloniy bu holatni shunchaki maishiy muammo sifatida emas, balki jamiyatdagi umumiy ma'naviy inqiroz belgisi sifatida ko'rsatadi [3, 67-b.].

3.5. Erkak mas'uliyatsizligi va iqtisodiy tengsizlik tanqidi

Avloniy ijodida gender madaniyatining yana bir muhim jihati - erkakning oiladagi mas'uliyati masalasidir. Shoir erkakni faqat oila boshlig'i sifatida emas, balki oila farovonligi, xotin-qizlar sha'ni va farzand tarbiyasi uchun javobgar shaxs sifatida ko'radi. "O'z maishatimizdan" asaridagi quyidagi misralar bu fikrni ochiq ifodalaydi:

*"Uyda och o'turordur xotuni, er toqum yeyar,
 Kelturub bachcha, bazmlarga ketar puldur-puldur"* [3, 125-b.].

Bu parchada oilaviy mas'uliyatsizlikning og'ir ko'rinishi tasvirlangan. Erning o'z huzur-halovatini o'ylab, xotinini och qoldirishi, oilaviy mablag'ni bazmlarga sarflashi keskin tanqid qilinadi. Bu holat Avloniy tomonidan axloqiy nuqson, ijtimoiy adolatsizlik va oilaviy mas'uliyatsizlik sifatida baholanadi.

3.6. Moddiy manfaat ustuvorligi va insoniylik inqirozi

Avloniy jamiyatdagi axloqiy tanazzulning yana bir sababini moddiy manfaatning insoniylikdan ustun qo'yilishida ko'radi. "Ro'yo" she'ridagi quyidagi misralar bu masalani yoritadi:

*"Qilur shu dengiza inson o'zini parvona,
 Kechub o'g'il-qizidan, boqmayur pul-u jona.
 Shu asr emish madaniyat, shu - davr emish go'yo,
 Jahon ichindagi insoniyat emish ro'yo"* [3, 144-b.].

Bu parchada insonning pul, manfaat va nafs ortidan quvib, o'z farzandini, oilasini, insoniy burchini unutishi tanqid qilinadi. Avloniy bunday holatni "madaniyat" deb atayotgan jamiyatni kinoya bilan fosh etadi.

3.7. Qiz bolalar ta'limini diniy-ma'rifiy asosda himoya qilish

Avloniy qiz bolalarning ilm olishini nafaqat dunyoviy ehtiyoj, balki diniy va axloqiy burch sifatida ham asoslaydi. "Parishon hollar" she'ridagi quyidagi misralar bu jihatdan alohida ahamiyatga ega:

*"Ota o'g'lin o'qutmas, qizni qilmas tarbiyat modar,
 O'sib beilm, beta'lim, besharm-u behayo bizlar.
 O'quvni farz der bizni shariat har o'g'ul-qizg'a,
 O'qutmay qizlarimizni, shariatdan judo bizlar"* [3, 88-b.].

Bu yerda Avloniy o'g'il va qiz bolaning ilm olishini shariatdagi farz tushunchasi bilan bog'laydi. U xalq orasida mavjud bo'lgan noto'g'ri diniy qarashlarni tanqid qiladi. Shoirning fikricha, qizlarni o'qitmaslik dinga amal qilish emas, aksincha, dinning asl ma'rifiy mohiyatidan uzoqlashishdir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Abdulla Avloniy ijodida gender madaniyati masalasi bevosita zamonaviy ilmiy terminlar bilan ifodalanmagan bo'lsa-da, uning mazmuni juda keng va chuqur yoritilgan. Avloniy ayol va erkakni jamiyat taraqqiyotida bir-biriga qarama-qarshi qo'ymaydi. Aksincha, ularning har ikkisiga ilm, tarbiya, axloq va mas'uliyat yuklaydi [3, 41-42-b.].

Avloniy qarashlarining muhim jihati shundaki, u gender madaniyatini faqat huquqiy tenglik darajasida emas, balki axloqiy va ma'rifiy masala sifatida tushuntiradi. Uningcha, qiz bola ilmi bo'lsa, kelajak avlod ilmi bo'ladi. Erkak mas'uliyatli bo'lsa, oila barqaror bo'ladi. Ota-ona farzandini teng va adolatli tarbiyalasa, jamiyatda ma'naviy yuksalish yuz beradi.

Avloniy asarlarida uchraydigan "xotun-qiz", "o'g'il-qiz", "xotun-erkak" kabi birikmalar tasodifiy emas. Ular muallifning tarbiya va ma'rifatni barcha insonlar uchun umumiy qadriyat deb bilganini ko'rsatadi [3, 63-b.; 3, 88-b.; 3, 124-b.].

Bugungi ta'lim jarayonida Avloniy ijodidan foydalanish bir nechta jihatdan samarali bo'lishi mumkin. Birinchidan, uning she'rlari orqali o'quvchilarga qizlar ta'limining tarixiy-ma'rifiy ahamiyatini tushuntirish mumkin. Ikkinchidan, oiladagi o'zaro hurmat, ota-onaning farzand oldidagi burchi, er va xotin mas'uliyati kabi mavzularni tarbiyaviy mashg'ulotlarda yoritish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Abdulla Avloniy ijodini gender madaniyati nuqtayi nazaridan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, muallif o'z davri-dayoq ayol va erkakning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini chuqur anglagan. U xotin-qizlar ta'limini millat kelajagi, oila mustahkamligi va farzand tarbiyasining asosiy sharti sifatida baholagan. Avloniy she'rlarida qiz bola va o'g'il bolaning ilm olish huquqi teng qo'yiladi. Shoir farzand tarbiyasida jinsga qarab ajratishni emas, balki har ikki jins vakiliga birdek mehr, ilm va tarbiya berishni talab qiladi.

Maqolada tahlil qilingan she'riy parchalar Avloniy ijodida gender madaniyati quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lishini ko'rsatdi: xotin-qizlarning ilm olishi, o'g'il va qiz farzand tarbiyasida tenglik, er va xotin o'rta-sida o'zaro hurmat, erkakning oilaviy mas'uliyati, ota-onaning farzand oldidagi burchi, moddiy manfaatdan ko'ra insoniylikni ustun qo'yish va jamiyatdagi jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish.

Shunday qilib, Abdulla Avloniy ijodi bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarda gender madaniyati, oilaviy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat, ma'rifatparvarlik va axloqiy yetuklikni shakllantirishda muhim pedagogik manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. - New York: United Nations, 2015.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-201-son Qarori.
3. Abdulla Avloniy. She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma. - Toshkent: Zabarjad Media, 2024. - 367 b.
4. Abdulla Avloniy - Vikipediya

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.